

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARING AQLIY RIVOJLANISHIDA BUYUK  
MUTAFAKKIRLARIMIZNING QARASHLARI VA BOLANING AQLIY RIVOJLANISH  
OMILLARI**

**Shaybekova Dilrabo**

*Baxmal 2-son pedagogika kollejimaksus fanlar o'qituchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarni aqliy rivojlanishida olimlarni o'z qarashlari va aqliy rivojlanish omillari haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Maktabgacha ta'lif, Abu Nasr Forobi, Abu Ali ibn Sino, Abdulla Avloniy, Yan Amos Komenskiy, aqliy tarbiya omillari.*

**Абстрактный:** В данной статье говорится о взглядах ученых и факторах психического развития в психическом развитии детей дошкольного возраста.

**Ключевые слова:** *Дошкольное образование, Абу Наср Фараби, Абу Али ибн Сина, Абдулла Авлани, Ян Амос Коменский, факторы интеллектуального воспитания.*

Insoniyat paydo bo'lgandan beri odamlar orasida yetishib chiqqan barcha olim-u fozillar, shoir-u yozuvchilarning barchasi mukammal ilm egallash orqali o'z davrining e'tiborli kishilari darajasiga ko'tarilganlar. Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobi, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalar g'arb olimlaridan Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, J.J.Russo va boshqalar mukammal ilm egallash orqali fanning barcha sohalarida buyuk kashfiyotlar yaratganlar.

Farobiy ta'lif-tarbiyaga bag'ishlangan asarlarida inson takomilida ta'lif-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lif-tarbiya usul va uslublari haqida fikr yuritadi. «Fozil odamlar shahri», «Baxt saodatga erishuv to'g'risida», «Aql ma'nolari to'g'risida», «Ilmlarning kelib chiqishi» kabi maorifiy asarlarida olimning ijtimoiy tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan. Farobiy ta'lifning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni yetishtirishdan iborat deb biladi.

Beruniyning bilimlarni egallash yo'llari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. Bolalarga bilim berishda ularni zeriktirmaslik uzviylik, izchillik, yangi mavzularni qiziqarli, asosan ko'rgazmali bayon etish va hokazolarga e'tibor berish kerakligini uqtiradi. Olim bilim oluvchilarga qalbni yomon o'zi sezishi mumkin bo'limgan holatlardan, behuda raqobatdan, shon shuhratdan saqlanish zarurligini aytadi. Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta'kidlaydi. Bu irsiyat, muhit, tarbiyadir. Ibn Sino insonlarni kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan bilim egallashga da'vat etadi. Bilimsiz kishilar johil bo'ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, ular yetuk bo'limgan kishilar deydi. Ibn Sino bilim olishda bolalarni mакtabda o'qitish zarur deb biladi. U ta'lilda quyidagi talablarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi: bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilmaslik, ta'lilda yengildan og'iriga borish orqali bilim berish olib boriladigan mashqlar bolaning yoshiga mos bo'lishi,

o'qitishda jamoa bo'lib o'qitishga e'tibor berish, ta'lif berishda bola qiziqishini va qobiliyatini hisobga olish, o'qitishni jismoniy mashqlar bilan birga olib borish.

Abu Ali ibn Sino aqlning rivojlanish bosqichlarini ishlab chiqqan. Mushohada bilan idrok etishning birinchi bosqichi aqliy kategoriylarini tushuntirishdir.

Ikkinchi bosqich. Ikki xil fikrni idrok etish. Uchinchi bosqich. O'zlashtirilgan bilim, fikrlarni idrok etish bilan erishiladi. Shunda u haqiqiy aql deyiladi. Olim aqlni 3 bosqichga bo'lar ekan, birinchi bosqichda yodlay oladigan, lekin hali harflarni ham, yozishni ham bilmaydigan bolalarni nazarda tutgan. Ikkinchi bosqichda tayoqchalarni chiza boshlagan, qalamdan foydalanishni o'rganayotgan bolalarning aqli tasavvur qilinadi. Uchinchi bosqichda inson aql shakllarini va ularga muvofiq hissiy obrazlarni egallagan bo'ladi. Ibn Sino aql deganda insoning tug'ma iste'dodini, bilish jarayonida shakllanadigan fikrlash qobiliyatini tushunadi.

Aqlni ikki xil kategoriyyaga bo'ladi:

1. Nazariy aql-borliqdagi umumiy narsalarni idrok etishdir.

2. Amaliy aql-buyumlarni tanlashda turtki sifatida ko'rindigan qobiliyatlardan.

O'z davrining yirik ma'rifatchilaridan hisoblangan Abdulla Avloniy ham yoshlarni ilmli bo'lishga chaqiradi. U aql va ilmni ulug'laydi hamda «Aql insonning piri komili, murshidi yagonasidir. Ruh ishlovchi, aql boshlovchidir» deb yozadi. Muallif o'z fikrini aniqroq va ravshanroq anglashi uchun shunday deb aytadi. «Hayvonlar o'zlariga bo'laklar tarafidan qiladurg'on zulm va jabrlarni shox, tish, tirnoqlari ila qaytarurlar. Lekin inson aql idroki soyasida o'ziga keladurg'on zarar va zulmlardan saqlanur. Yer yuzidagi hayvonlarni asir qilib, bo'yndidan bog'lab iplari uchini qo'llariga bergen insonlarning aqlidir».

Maktabgacha ta'lif yoshdag'i bolalarga ta'lif berish g'oyasi birinchi bo'lib chet el pedagogikasida chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) tomonidan yaratilgan. U ona rahbarligida 6 yoshgacha bo'lgan bolalarga ta'lif tarbiya berish mumkinligini ko'rsatib berdi. Shu davrda bolani yoshini e'tiborga olgan holda kishi o'rganishi lozim bo'lgan hamma narsaga o'rganish lozim deydi.

Aql-keng ma'noda sezish va idrok etishdan boshlanib tafakkur va hayotni o'z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig'indisidir.

Bolaning aqliy rivojlanishi ba'zi omillarga bog'liq:

1. Genetik omillar. Bu bola tug'ilish paytida ota-onasidan oladigan narsaga tegishli. Bolaning intellektual rivojlanish darajasi, sifati va yo'nalishi ko'p jihatdan ushbu omillarga bog'liq.

2. Onaning homiladorligi paytida paydo bo'ladigan omillar. Homilador ayolning turmush tarzi bolaning aqliy rivojlanishiga ta'sir qiladi. Masalan, tug'ilman bolaning aqliy qoloqligiga quyidagilar ta'sir qilishi mumkin: to'yib ovqatlanmaslik, onaning tanasida yod etishmasligi, homiladorlik paytida kasallik, dorilarni qabul qilish, spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar, tamaki chekish. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bola o'z organizmiga tegishli bo'lgan narsalarni va shu qatorga genetikaga bog'liq bo'lgan elementlarning 90%ini onadan oladi. Bolani aqliy tarbiyalashni bola ona qornida bo'lgan vaqtida onadan boshlash eng to'g'ri yondashuv hisoblanadi.

3. Tashqi muhit omillari. Chaqaloqlarning aqliy faoliyatidagi buzilishlar quyidagi sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin: bolalarning yomon ovqatlanishi, aloqa etishmasligi, vosita va kognitiv faoliyatga cheklolar, to'liq bo'limgan oila. Oilaning butunligi bu sifatli ichki muhitning yaratilishi demakdir. Bola 2ta muhitda rivojlanadi: ichki va tashqi muhit. Oila bolaning ichki muhiti bo'lsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarning tashqi rivojlanish muhiti hisoblanadi.

4. Katta oilaning omili. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, birinchi tug'ilgan chaqaloqlar oiladagi boshqa bolalarga qaraganda aqlan ancha rivojlangan. Biroq, katta oilalarda bolalar ijtimoiy jihatdan yaxshiroq rivojlanadilar: ular muloqot qobiliyatlarini osongina egallaydilar va tezda jamiyatga moslashadilar. Kognitiv bilish va komunikatsiya bolani atrof-olam bilan tanishishini ta'minlaydigan asosiy omillar sirasiga kiradi. Bola o'sib ulg'ayish davomida to`laqonli muqolotda bo'ladi.

5. Oilaning ijtimoiy holati omili. Juda kambag'al oilalarning farzandlari har doim ham ota-onalarini maktabdagi ko'rsatkichlari bilan quvontirmaydilar. Negaki, ijtimoiy omil bu bolalarga to'sqinlik qiladi. Tengdoshlari orasidagi oilalar o'rtasidagi ayrim past ko'rsatkichlar ularni asosiy e'tiborini o'qishga emas, shu muhitdan va jarayondan chiqib ketishga qaratishga majbur qiladi. Psixologlar, odamlar yoqtirmagan joyda va yoqtirmagan insonlar bilan ishlashda ularning ish koyfitsientlari past bo'lishini ta'kidlashadi. Chunki ular o'z energiyalarining 70%ini bu odamlar bilan muloqot qilishga sarflashadi.

6. Maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'sir etuvchi omili. Ko'pgina maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglar hanuzgacha o'zini yaxshi tutadigan, savollarga o'zi talab qiladigan tarzda javob beradigan, so'ramasdan hech narsa qilmaydigan yaxshi tarbiyalanuchini ko'rib chiqishadi. Yuqori ijodiy salohiyatga ega bolalar ushbu xususiyatlarga mos kelmaydi: vazifalarni hal qilishda nostandard yondashuvni ko'rsatadiganlar. Ta'limga individual va tarbiyalanuvchilarga yo'naltirilgan yondashuvlargina bugungi kunda maktabdagi bolalarning aqliy rivojlanishini rag'batlantiradi.

7. Bolaning shaxsiy xususiyatlarining omili. Aqliy qobiliyatlarning rivojlanishiga bolaning fe'l-atvori va temperamenti ham ta'sir qiladi. O'ychan bolalar qiyin ishlarga diqqat bilan qaraydilar, ammo ular o'zlariga ishonchsiz va muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqishadi. Yuqori darajada hayajonli bolalar biroz yuzaki, ammo o'z-o'zidan ijodiy impulslarni namoyon qila oladilar.

8. Ota-onalarning shaxsiy fazilatlari omili. Ota-onalar intellektual rivojlangan, muvaffaqiyatga erishgan, o'ziga ishongan va o'z ishini yaxshi ko'rganida yaxshi bo'ladi: bunday sharoitda bolalar tezroq rivojlanadi. Biroq, bu aqlii bolani tarbiyalashning asosiy sharti emas. Tarbiyada asosiy narsa ota-onaning g'amxo'rliги va bolalar kuchiga bo'lgan ishonchdir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar o'zlariga tushunarli bo'lgan ijtimoiy voqeа va hodisalar, kishilarning mehnati, umumxalq bayramlari bilan, respublikamizda yashaydigan ba'zi xalqlar hayoti bilan tanishtiriladi.

Xulosa qilib aytganda, aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish muammosi nihoyatda murakkab va ko'p qirrali va hozirda bu juda dolzarbdir, chunki ko'pincha bolalar

tafakkurining cheklanganligi, tayyor sxemalarda o'ylash istagi, bu sxemalarni kattalardan olishning namoyon bo'lishini kuzatish kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy qobiliyatlarini shakllantirish eng muvaffaqiyatli darajaga erishish uchun quyidagilarni tavsiya qilaman:

- Tarbiyachilar o'z faoliyatida diagnostika jarayonida aniqlangan maktabgacha yoshdagi bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirish darajasi haqidagi bilimlarga tayanishlari kerak;
- Mashg`ulotlarda rivojlantiruvchi ta'lim maqsadlari uchun turli xil usul va uslublarni ta'minlash;
- o'qitishda har bir bolaning imkoniyatlarini hisobga olish;
- Mashg`ulotlarda didaktik o'yinlar texnologiyasidan foydalanish.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. Maktabgacha pedagogika. Darslik, F.R. Qodirova
2. Maktabgacha pedagogika SH. Sodiqova
3. Bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari